

# Positive And Negative Aspects Of Internet Technologies In The Language Teaching Process

**Uktamova Mokhigul Khamidullo-kizi**

Senior lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

**Qosimjonova Dilfuza**

Student of Fergana Davat University

## Annotation

This article analyzes the role, opportunities, and positive and negative aspects of Internet technologies in the language teaching process. In particular, the effectiveness of online platforms, mobile applications, virtual classrooms, and programs based on artificial intelligence in language learning is highlighted. Internet technologies help organize the educational process in an interactive, convenient, and individualized manner, developing students' independent learning skills. At the same time, the article also considers negative aspects such as excessive use of technologies, distraction, Internet addiction, technical problems, and the decline of traditional communication. The results of the study show that the effective and balanced use of Internet technologies is important in improving the quality of language teaching.

**Keywords:** Internet technologies, language teaching, digital education, CALL (Computer-Assisted Language Learning), MALL (Mobile-Assisted Language Learning), artificial intelligence, online platforms.

## Annotatsiya

Ushbu maqolada internet texnologiyalarining til o'qitish jarayonidagi o'rni, imkoniyatlari hamda ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual sinflar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlarning til o'rganishdagi samaradorligi yoritib beriladi. Internet texnologiyalari ta'lim jarayonini interaktiv, qulay va individuallashtirilgan shaklda tashkil etishga yordam berib, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, maqolada texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish, diqqatning chalg'ishi, internetga qaramlik, texnik muammolar hamda an'anaviy muloqotning kamayishi kabi salbiy jihatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari internet texnologiyalaridan samarali va muvozanatli foydalanish til ta'limi sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Internet texnologiyalari, til o'qitish, raqamli ta'lim, CALL (Computer-Assisted Language Learning), MALL (Mobile-Assisted Language Learning), sun'iy intellekt, onlayn platformalar.

Hozirgi globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan, internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, til o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi o'qitish metodlari va ta'lim mazmunining yangilanishiga olib kelmoqda. Internet asosidagi ta'lim resurslari an'anaviy o'qitish usullarini to'ldiruvchi muhim vosita sifatida shakllanib, o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali muhit yaratmoqda. Internet texnologiyalari orqali onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual sinflar hamda sun'iy intellektga asoslangan dasturlar yordamida til o'rganish jarayoni interaktiv, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilmoqda. Bu esa o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish, autentik materiallardan foydalanish, real vaqt rejimida muloqot qilish hamda o'z bilimlarini baholash imkoniyatini beradi. Natijada, til o'rganish samaradorligi oshib, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi kuchaymoqda. Biroq internet texnologiyalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi bilan bir qatorda, ayrim muammoli jihatlari ham yuzaga kelmoqda. Xususan, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish diqqatning chalg'ishiga, o'quvchilarning passivlashuviga, jonli muloqot ko'nikmalarining susayishiga hamda internetga qaramlik holatlarining kuchayishiga olib kelishi

mumkin. Shuningdek, texnik muammolar, internetga teng kirish imkoniyatining yo'qligi va onlayn axborotning ishonchligi masalalari ham ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, internet texnologiyalarining til o'qitish jarayonidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning didaktik imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash hamda ta'lim amaliyotida samarali va muvozanatli foydalanish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi internet texnologiyalarining til ta'limiga ta'sirini kompleks o'rganish va ularni samarali qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar berishdan iborat. So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar: M. Warschauer, D. Tafazoli, H.P. Bui, T. Erben va boshqa ko'plab maqolalar internet va raqamli texnologiyalar til o'qitish jarayonida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'layotganini, ularni o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratishini ilmiy asosda ta'kidlamoqdalar.<sup>1</sup>

Warschauer internet va kompyuter texnologiyalarining til o'rganishdagi kommunikativ imkoniyatlarini tahlil qiladi. U CALL (Computer-Assisted Language Learning) orqali o'quvchilarning autentik materiallar bilan ishlashi, real muloqot muhitiga kirishi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishini asoslab beradi. Shu bilan birga, raqamli tengsizlik va texnologiyaga kirish muammolarini ham tanqidiy tahlil qiladi.<sup>2</sup> D. Tafazoli Sun'iy intellekt vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqotni tanqidiy tahlil qilish (Critical Appraisal of Artificial Intelligence-Mediated Communication, 2024) asarida sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar (chatbotlar, avtomatik tarjima, nutqni aniqlash tizimlari)ning til o'rganishdagi rolini tahlil qiladi. U AI vositalarining tezkor feedback berish, mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini ijobiy baholaydi, ammo ularga haddan tashqari tayanish o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydi.<sup>3</sup> H.P. Bui Til o'qitishda texnologiyalar uchun innovatsiyalar (Innovations in Technologies for Language Teaching and Learning, 2024) kitobida til o'qitishda e-learning, mobil learning (MALL), onlayn baholash tizimlari va interaktiv platformalarning amaliy qo'llanilishi yoritiladi. Hung Phu Bui texnologiyalar yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish yo'llarini ko'rsatadi.<sup>4</sup> T. Erben Teaching English Language Learners through Technology kitobi ingliz tilini o'rganuvchilarni texnologiyalar orqali samarali o'qitish metodlarini taklif qiladi.<sup>5</sup> U onlayn resurslar, multimedia materiallar va internet platformalari yordamida tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalarini amaliy misollar bilan tushuntiradi. Shuningdek, texnologiya o'qituvchini almashtirmasdan, balki yordamchi vosita bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Internet texnologiyalarining til o'qitish jarayonidagi ijobiy jihatlari avvalo ta'limning interaktivligi va moslashuvchanligi bilan bog'liq. Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali o'quvchilar istalgan vaqtda, istalgan joyda til o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ayniqsa masofaviy ta'lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual sinflar yordamida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida real vaqt rejimida muloqot o'rnatilib, dars jarayoni samarali tashkil etiladi. Video konferensiyalar, chatlar, forumlar va elektron topshiriqlar o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, internet texnologiyalari autentik materiallardan foydalanish imkonini kengaytiradi. O'quvchilar xorijiy tilni o'rganishda haqiqiy matnlar, videolar, podkastlar, yangiliklar saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi materiallar orqali tilning tabiiy qo'llanilish shakllarini o'zlashtiradilar. Bu esa ularning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tinglab tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda multimedia vositalari katta ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> Warschauer M. Computer-mediated collaborative learning: Theory and practice // *Modern Language Journal*. – 1997. – Vol. 81, №4. – P. 470–481.; Tafazoli D., Gómez Parra M.E. Digital technology and language teaching: A review of research // *Journal of Language Teaching and Research*. – 2016. – Vol. 7, №5. – P. 902–908; Bui H.P. Technology-enhanced language learning: A review of the literature // *Asian EFL Journal*. – 2020. – Vol. 24, №3. – P. 45–60.; Erben T., Ban R., Castañeda M. *Teaching English Language Learners through Technology*. – New York: Routledge, 2009. – 240 p.

<sup>2</sup> Warschauer M. Computer-mediated collaborative learning: Theory and practice // *Modern Language Journal*. – 1997. – Vol. 81, №4. – P. 470–481.; Warschauer M. *Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide*. – Cambridge, MA: MIT Press, 2003. – 274 p.;

<sup>3</sup> Tafazoli D. *Critical Appraisal of Artificial Intelligence-Mediated Communication*. – Hershey, PA: IGI Global, 2021. – 312 p.

<sup>4</sup> Bui H.P. *Innovations in Technologies for Language Teaching and Learning*. – Hershey, PA: IGI Global, 2022. – 296 p.

<sup>5</sup> Erben T., Ban R., Castañeda M. *Teaching English Language Learners through Technology*. – New York: Routledge, 2009. – 240 p.

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar esa individual yondashuvni kuchaytiradi. Adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchining bilim darajasi, xatolari va o'zlashtirish sur'atini tahlil qilib, mos mashqlarni tavsiya etadi. Avtomatik baholash tizimlari tezkor va aniq feedback berib, o'quvchining o'z ustida ishlashiga sharoit yaratadi. Natijada o'quv jarayoni shaxsga yo'naltirilgan va samarali tus oladi.

Bundan tashqari, internet texnologiyalari mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar o'z o'quv jarayonini rejalashtirish, resurslarni tanlash, o'zlashtirish darajasini baholash kabi metakognitiv strategiyalarni o'zlashtiradilar. Bu esa ularning umrbod ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, internet texnologiyalarining salbiy jihatlari ham mavjud. Eng avvalo, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning diqqatini chalg'itishi mumkin. Onlayn muhitda reklama, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ko'ngilochar kontent ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada o'quvchi dars mazmunidan chalg'ib, yuzaki o'zlashtirish holatlari yuzaga keladi.

Yana bir muhim muammo – raqamli tengsizlik masalasidir. Barcha o'quvchilarda bir xil texnik vositalar yoki barqaror internet aloqasi mavjud emas. Bu esa ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar tamoyilining buzilishiga olib keladi. Ayrim hududlarda texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani masofaviy ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, internet manbalarining ishonchligi muammosi ham dolzarbdir. O'quvchilar har doim ham axborotning haqqoniyligini tahlil qila olmaydilar. Noto'g'ri yoki sifatsiz materiallardan foydalanish esa bilim sifatining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois raqamli savodxonlikni shakllantirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Texnologiyalarning yana bir salbiy jihati – jonli muloqotning qisqarishidir. Til o'rganishda yuzma-yuz muloqot, emotsional aloqa va ijtimoiy interaksiya muhim rol o'ynaydi. Agar ta'lim jarayonida faqat texnologiyalarga tayanilsa, o'quvchilarning og'zaki nutq va ijtimoiy ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmasligi mumkin. Shuning uchun texnologiyalar an'anaviy o'qitish metodlarini to'ldiruvchi vosita sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Internet texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun didaktik yondashuv muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi raqamli vositalarni dars maqsadiga muvofiq tanlashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasini inobatga olishi zarur. Shuningdek, texnologiyalarni integratsiya qilish jarayonida pedagogik maqsad ustuvor bo'lishi, texnologiya esa vosita sifatida xizmat qilishi lozim. Ana shundagina internet texnologiyalari til o'qitish jarayonida haqiqiy samaradorlikni ta'minlay oladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, internet texnologiyalari zamonaviy til ta'limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual sinflar hamda sun'iy intellekt asosidagi dasturlar o'quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Natijada o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil ta'lim ko'nikmalari hamda motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi.

Shu bilan birga, internet texnologiyalaridan haddan tashqari foydalanish diqqatning chalg'ishi, yuzaki o'zlashtirish, jonli muloqotning kamayishi va raqamli tengsizlik kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, texnologiyaga ortiqcha tayanish o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Demak, internet texnologiyalari til o'qitishda katta didaktik imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularni samarali qo'llash muvozanatli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Texnologiya maqsad emas, balki ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. An'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirish zamonaviy til ta'limining eng maqbul yo'nalishi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Mark Warschauer. Computer-Assisted Language Learning: An Introduction. Cambridge University Press, 1996.

- Khodjaeva, D. I., & Mustafoyeva, P. U. (2020). Position and combination of sounds in speech. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 182.
- Xodjayeva, D. I., Abulova, Z. A., Ochilova, N. M., & Sodiqova, G. D. (2020). TRAINING PROBLEM IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING, CONTINUATION IN THEIR TYPOLOGY AND EXERCISE. *Theoretical & Applied Science*, (6), 158-161.
- KHODJAYEVA, D., & SAIDOVA, Z. (2021). THE ORIGIN AND JUSTIFICATION OF THE TERM TAXIS IN LINGUISTICS. In *E-Conference Globe* (pp. 375-379).
- Kurbanova, N. (2017). Efficient ways in teaching writing in ESL classes. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 21.
- Kurbanova, N. (2017). New techniques in teaching idioms for EFL learners. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 19.
- Kurbanova, N. (2018). Speaking activities as a main tool for developing self-confidence. *Интернаука*, (9), 25-27.
- Raxmatulloevna, K. R., & Oktamovna, O. M. (2022). The Distinctive Writing Style of Arthur Conan Doyle. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 197-201.
- Rakhmatulloevna, K. R. (2016). Uzbek national cuisine ethnographisms in English translations. *UCT Journal of Social Sciences and Humanities Research*, 4(2), 20-25.
- Kasimova, R. R. (2022). Comparative study of a Writer's and Translator's Psychology in the English translation of "Kecha va Kunduz". VI. *Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyum. Moldova*, 13-15.
- Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2019). COMPARISON OF CEREMONIES AND LEGENDS ASSOCIATED WITH THE BELIEF IN REVERENCE FOR WATER. *Theoretical & Applied Science*, (6), 120-124.
- Jalilova, L. (2020). National Specificity of American Satirical Short Stories. *Philology Matters*, 2020(2).
- Жалилова, Л. Ж. (2018). СПЕЦИФИКА АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА. Теория и практика современной науки, (3 (33)), 198-203.
- Жалилова, Л. Ж. (2016). Сатира А. Бирса в свете фольклорных и литературных традиций. На пересечении языков и культур. *Актуальные вопросы гуманитарного знания*, (1), 295-299.
- Urayeva, D., & Nazarova, G. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF MYTHOLOGICAL NAMES AND MYTHOLOGISMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LITERATURE. *Philology Matters*, 2021(1), 3-21.
- Nazarova, G. P., Umurova, K. H., & Kasimova, N. F. (2020). Peculiarities of the mythological images of the British folklore. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8 Special Issue), 1614-1618.
- Kobilova, N. S., & Nazarova, G. P. (2016). Elaborated methods in the light of writing. *International scientific journal*, (4 (2)), 34-36.
- Nazarova, G. P. (2019). Women mythological characters in British and Uzbek literature. *Экономика и социум*, (2 (57)), 14-17.
- Khajieva, F. M. (2021). The rise and development of the american biographical novel. *JournalNX*, 7(06), 262-267.
- Melsovna, K. F. (2021). Cosmopolitanism through intertextual devices in the postmodern biographical novel. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 156-161.
- Kholikova, N. N. (2019). Translation and its studies (according to JH Chase's uzbek translated works). *Theoretical & Applied Science*, (10), 652-655.
- Safarova, Z. (2022). Реалистичное художественное изображение жизни сирот в романе Диккенса "Оливер Твист". *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ(buxdu. Uz)*, 13, 13.
- Safarova, Z. (2020). Analysis of orphan images and orphanhood in children's literature. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1).

- Khayatovna, N. M. UDC: 398.93 English And Uzbek Blessings Which Formed By The Belief Of Magic Words. Scientific Reports Of Bukhara State University, 72.
- Niyazova, M. K., & Subkhonova, N. M. (2023). Creation of Robinson Crusoe Novel. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 1(5), 28-31.
- Niyazova, M. K., & Temirova, M. (2023). Semantic analysis of old english phraseological units. Asian Journal of Multidimensional Research, 12(3), 35-39.
- Khayatovna, N. M. (2022). Commonalities of English and Uzbek blessings. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 406-410.
- Kilicheva, M. R. (2023). Interpretation of Dreams In—Jane Eyrell And—«Wide Sargasso Sea»ll. Scientific Reports Of Bukhara State University, 4, 239-242.
- Kilicheva, M. (2022). Принципы Духовного Анализа В Художественном Резултате Одиночества В Английской Поэзии. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 8(8).
- Kilicheva, M. R. (2019). DEPICTION OF HUMAN PSYCHE IN ULUGBEK KHAMDAM'S NOVEL " LONELINESS". Theoretical & Applied Science, (12), 678-680.
- Narzullayeva, F. (2021). ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВА «ГОЛОВА» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗАХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 3(3).
- Grinev-Griniewicz, S. (2016). Polysemy in language and thought. Crossroads. A Journal of English Studies, (01 (12)), 19-30.
- Olimovna, N. F. (2022). Contrastive Analysis of the “Head” in English and Uzbek Languages. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 410.
- Ziyodullaev, A. R. (2024). EPONYMS IN ONOMASTICS: LINGUISTIC, CULTURAL, AND HISTORICAL DIMENSIONS. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 2(5), 56-61.
- Ziyodullayev, A. R. (2022). UZBEK EPONYMS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 47-49.
- Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2019). COMPARISON OF CEREMONIES AND LEGENDS ASSOCIATED WITH THE BELIEF IN REVERENCE FOR WATER. Theoretical & Applied Science, (6), 120-124.
- Ахмедова, А. Т., Султонова, М., & Омонова, М. (2024). СОМАТИЧЕСКАЯ КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ ПЕРВОЙ БЕРЕМЕННОСТИ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(1-2), 60-67.
- Тлегенов, М. Т. (2021). ПОПУЛЯЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. ББК 1 Р76, 27.
- Тлегенов, М. Т. (2026). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИИ ПЕСЧАНКИ (MERIONES TAMARISCINUS) В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. Advances in Science and Environment, 2(03), 21-24.
- Тлегенов, М. Т., & Утемуратова, Г. Н. (2012). ОЦЕНКА ОБИЛИЯ НАСЕЛЕНИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. Аспирант и соискатель, (6), 66-68.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). CLINICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE DISORDERS AND THYROID GLAND HORMONES IN HYPOTHYROIDISM. Научный Фокус, 3(32), 506-511.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). STRUCTURE OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. Научный Фокус, 3(32), 512-518.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. Научный Фокус, 3(32), 526-532.
- Муминова, Н. А. (2014). Формирование гармонично развитой личности как цель воспитания в современном демократическом обществе. Молодой ученый, (9), 502-505.
- Djabbarov, X. D., & Muminova, N. A. (2021). Роль лексико-семантических средств в интерпретации антропонима тарагай и топонима тарагай. Theoretical & Applied Science, (1), 406-411.



Madina, S. (2026). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE LEXICON RELATED TO INTERNET ADVERTISING. SCHOLAR, 4(1), 108-112.  
Davood Tafazoli. Critical Appraisal of Artificial Intelligence-Mediated Communication. 2024.